XORAZM VILOYATI URGANCH TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 14-noyabr | 273-12-173-Q/25 | Urganch tuman hokimligi

Urganch tumanidagi aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 hamda 21^1-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi qonunning 39-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi nizomning 10-bandiga asosan, Urganch tumanidagi aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish maqsadida

QAROR QILADI:

1. Urganch tumani kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi hamda Urganch tumani “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining Urganch tumani hududidagi tashkilotlar bo‘yicha 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarini belgilash to‘g‘risidagi quyidagi takliflari ma’qullansin:

- xodimlar soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan davlat tashkilotlarida majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining yetti foizidan oshmagan miqdorda hamda xodimlar soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining uch foizidan oshmagan miqdorida kelgusi yil uchun 128 ta ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish, jumladan:

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 33,0 foiz (42 kishi);

kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari uchun 55,4 foiz (71 kishi);

muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun 1,6 foiz (2 kishi);

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun 5,4 foiz (7 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun 4,6 foiz (6 kishi) miqdorida ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantiriladi.

2. 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish maqsadida quyidagilar:

davlat tashkilotlari (byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari:

zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida yigirma besh foizi miqdorida zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining tayyorligini yil boshlanishidan oldin o‘n kundan kechiktirmay ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar Urganch tumani kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qiladi;

ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlashi, bu haqda Urganch tumani kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini birinchi chorak tamom bo‘lganidan so‘ng, 10 kundan kechikmay xabardor qiladi;

ishga joylashtirish to‘g‘risida Urganch tumani kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar axborot taqdim etadi.

Zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarini saqlash shartlari O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi qonunining 40-moddasiga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta’minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2025-yil 14-fevraldagi PQ-64-son qaroriga muvofiq, aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo‘lgan shaxslarni ish o‘rinlarining belgilangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilish uchun ish beruvchilarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya mablag‘larini to‘lab berilsin.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi qonuning 3, 13, 34, 38, 39, 40, 41-moddalariga asosan, aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga eng kam miqdordagi ish joylarini yaratish yuzasidan qabul qilingan mazkur qarorni bajarmaganlik uchun ish beruvchilar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

6. Urganch tumani kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi rahbari Z.Qurbanbayev:

besh kun muddatda ushbu qaror nusxasini 1 va 2-ilovalarda ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

7. Ushbu qaror 2026-yil 1-yanvardan kuchga kirishi munosabati bilan tuman hokimining 2024-yil 4-noyabr kungi 457-12-173-Q/24-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

8. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari J.Xalmetov zimmasiga yuklatilsin.

Urganch tumani hokimi **G.Sultanov**

Urganch tumani hokimining
2025-yil 14-noyabrdagi
273-12-173-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Urganch tumanida 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun davlat tashkilotlari (budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli

RO‘YXATI

T/R	Tashkilot nomi	Tashkilotning STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	Shu jumladan:					
				nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar	odam savdosidan jabrlangan shaxslar
JAMI			**5452**	**141**	**120**	**42**	**7**	**63**	**2**	**6**	**0**
1.	Urganch tumani Markziy kasalxona	201989259	1781	49	14	4	2	6	2		
2.	Tuman davlat sanitariya epidemologiya nazaorat markazi	201901755	70	4	2	1		1			
3.	Respublika kordialogiya markazi Xorazm filiali	201970196	253	7	7	4		3	0		
4.	Xorazm viloyat Urganch	202280864	50	3	2	1		1			

	tumani vetenariya bo‘limi										
5.	Obodonlashtirish boshkarmasi	206947891	227	10	10	2	1	1		6	
6.	Cholish suv yo‘llari texnika bo‘limi	201004526	40	2	2	1		1			
7.	1-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203383553	130	7	2	1		1			
8.	2-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206905975	106	2	2	1		1			
9.	3-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206905983	135	5	2	1		1			
10.	4-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206905990	64	3	2			2			
11.	5-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206906000	74	1	2			2			
12.	6-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206906017	89	3	2	1		1			
13.	7-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203257503	101	2	2	1		1			
14.	8-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203261128	95	1	2	1		1			
15.	9-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206906024	44	1	2			2			
16.	10-son	206906032	84	0	2	1	0	1			

	umumiy o‘rta ta’lim maktabi										
17.	11-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206906049	81	1	2	1		1			
18.	12-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206906056	88	5	2			2			
19.	13-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206906064	42	1	2			2			
20.	14-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206906071	83	3	2			2			
21.	15-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206906088	102	1	2	1		1			
22.	16-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206906095	64	2	2			2			
23.	17-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206906104	78	1	2		1	1			
24.	18-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203411690	70	2	2	1		1			
25.	19-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206906111	68	0	2	1		1			
26.	20-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203293705	83	0	2	1		1			
27.	23-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206906143	55	2	2			2			
28.	24-son	206906150	80	4	2		1	1			

	umumiy o‘rta ta’lim maktabi										
29.	26-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206906174	60	1	2	1		1			
30.	27-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203380114	80	1	2			2			
31.	29-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206906199	52	0	2	1		1			
32.	31-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206906214	32	0	1	1					
33.	32-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206906222	68	1	2	1		1			
34.	33-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203234753	96	2	3		1	2			
35.	35-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206906239	35	0	1			1			
36.	36-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203334067	64	3	2	1		1			
37.	38-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203377038	82	3	3	2		1			
38.	39-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206906246	78	3	2	1		1			
39.	40-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	207303918	40	0	1	1		0			
40.	41-son	206906261	40	0	1	1		0			

	umumiy o‘rta ta’lim maktabi										
41.	42-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206906278	96	1	3	1	1	1			
42.	43-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203248996	50	0	2	1		1			
43.	44-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203274206	48	0	2	1		1			
44.	46-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206906285	67	0	2	1		1			
45.	47-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	205535400	101	2	3	1		2			
46.	48-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	306703060	50	0	2	1		1			
47.	49-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	207303814	24	2	1			1			
48.	50-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	307889859	52	0	2	1		1			

Urganch tumani hokimining
2025-yil 14-noyabrdagi
273-12-173-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Urganch tumanida 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli

RO‘YXATI

T/R	Tashkilot nomi	Tashkilotning STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:			
				nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar
JAMI:			**425**	**16**	**8**	**0**	**0**	**8**	**0**
1.	“XORAZM NURAFSHON PAXTAKOR” ma’suliyati cheklangan jamiyati	310924553	108	12	4			4	
2.	“URG TEX” ma’suliyati cheklangan jamiyati	302648092	317	4	4			4	